

O'ZBEKISTONDA TURISTIK MAJMUALAR FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHDA KO'P VARIANTLI MODELLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

xomidovqahhorali7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda turistik majmualar faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarishda ko'p variantli modellardan foydalanish istiqbollari, turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlari tahlili hamda turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarining trend modellari hamda 2025-2027 yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. statistik tahlil, omillar tahlili, turistik majmua, boshqaruv yondashuvlari, turizm xizmatlari, menejmentning qonunlari, rivojlanish tendensiyalari, rivojlanish qonuniyatlari.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar tarkibidagi soha va tarmoqlarni prognozlamasdan multiplikativ samara beradigan omillar (soha va tarmoqlar) faoliyatidan keladigan umumiy sinergetik samarani rejalashtirish mumkin emas. Oxirgi yillarda iqtisodiy jarayonlarni prognozlash iqtisodiyot tarmoq va sohalarini maqbul darajada ishlashini ta'minlashning asosiy vositalaridan biriga aylanmoqda. Kelgusi davrni rejalashtirish va rivojlantirishning muqobil ssenariylarini ishlab chiqish jarayonida prognozlash jamiyat ishlab chiqarishi va uning maqsadlarini ilmiy asoslashda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'llarini oldindan ko'rish vositasi vazifasini bajaradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy modellashtirish uzoq va o'rta muddatli iqtisodiy samarador yo'nalishlar, siyosat va qabul qilingan qarorlar amaliyotda qay ahvoldaligini ko'ra bilish uchun zarur. Ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish maqbul qarorlar tanlash va ularning ijrosini ta'minlashi zarur, chunki bugungi kunda jamiyat uchun asoslanmagan qaror qabul qilishdan ko'riladigan zarar darajasi ko'p marotaba o'sib bormoqda. Shuning uchun zamonaviy xo'jalik yuritish prognozlash ko'lami kengaytirilishini uning usul va uslubiylatlari takomillashtirilishini talab etmoqda.

Ijtimoiy rivojlanish jarayonini prognozlash darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, jamiyatdagi jarayonlarni boshqarish va rivojlantirish shunchalik samarali kechadi.

Turizm sohasini rivojlanishini makro yoki mezo darajada modellashtirish faoliyatning rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi eng muhim omillarni boshqarishga asoslanadi. Ushbu omillarni ajratib olish va ularning natijaviy omil, ya'ni sohaning yalpi xizmatlari hajmiga ta'siri asosidagi omilli modellar korrelyatsion-regression tahlil asosida amalga oshiriladi hamda natijaviy ko'rsatkichning tuzilgan ekonometrik modellar orqali hisoblangan prognozlari yordamida faoliyatni tashkil etishning ssenariylari ishlab chiqiladi.

Turizm sohasi rivojlanishining statistik tahlili negizini unga ta'sir etuvchi iqtisodiy o'sish omillari o'rtasidagi bog'liqliklar shakllarini, bu bog'liqlikda iqtisodiy

o'sishga ta'sir etuvchi omillarning qaysi biri muhimligi hamda ularning boshqa omillardan farq qiluvchi xususiyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Tarmoq va sohalar, xususan, ular tarkibiga kiruvchi korxonalarning rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- omillar o'rtasidagi bog'liqliklarning yo'nalishlari;
- omillar o'rtasidagi bog'liklikning vaqt bo'yicha o'zgarish xususiyatlari;
- omillar o'rtasidagi bog'liklik ma'nosining sababliligi yoki birgalikda ishtirok etishi va boshqalar.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlarini ko'plab iqtisodchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, bulardan iqtisodchi olim M.T.Alimova o'zining "Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari" nomli doktorlik dissertatsiyasida turizm bozorida talab va taklifni muvofiqlashtirish, boshqaruv konsepsiyasi orqali turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasi rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda hududiy turistik klasterlarni shakllantirish bo'yicha ilmiy mulohazalarni keltiradi[1].

Shuningdek, MDH olimlari S.G.Surkov va V.I.Krivoruchkolarning "Mejdunarodniy turizm v Rossii: problemi razvitiya i upravleniya" nomli asarida Rossiyada xalqaro turizm bozori rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va integratsion jarayonlar, turizm industriyasi subyektlari faoliyati, xalqaro turizmni tartibga solish mexanizmlari, xalqaro turistik siyosatning maqsadlari, vazifalari va ustuvor boshqaruv yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar[2].

Mualliflar o'z asarida xalqaro turizm rivojlanishining omillari, globallashtirish jarayonlarining turistik majmualar boshqaruv faoliyatiga ta'siri, turizm destinatsiyasi rivojlanish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratganlar. M.M.Ramadonova va M.A.Makarchenkolarning "Gosudarstvennoye regulirovaniye turisticheskoy deyatelnosti" nomli asarida turistik faoliyatni tartibga solish usullari, vositalari va shakllari yoritib berilgan. Bunda turizm sohasini boshqarishda davlatning rolga ham alohida e'tibor qaratilgan. Biroq asarda turistik faoliyatni boshqaruv usullari va vositalari tasnifi ishlab chiqilmagan[3].

Tadqiqot metodologiyasi: Maqolada O'zbekistonda turistik majmualar faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarishda ko'p variantli modellardan foydalanish istiqbollari ishlab chiqishda dialektik va tizimli yondashuv, qiyoslash, empirik tadqiqot hamda qiyosiy tahlil kabi usullari orqali turistik majmualar faoliyatini boshqarishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chikilgan.

Asosiy natijalar: Turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi o'zgarishini endogen omil sifatida olgan holda uning asosiy omil (resurs)lar ta'sirida o'zgarishi bo'yicha ko'p omilli tahlil amalga oshirildi. Turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmini funksiyaning yuqori cho'qqisi, ya'ni natijaviy omil sifatida belgilab olgan holda, unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarini soha mutaxassislarining yetakchi ekspertlari ishtirokida o'tkazilgan ekspert tahlili asosida tanlangan quyidagi ko'rsatkichlar tanlandi (1-jadval):

- X_1 – mamlakat ichidagi turizm iste'moli;
 X_2 – turistik majmualarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi;
 X_3 – turistik majmualarda xizmat ko'rsatilgan mijozlar soni;
 X_4 – turizm tarmog'i va boshqa tarmoqlarda ishlab chiqarish hisobi;
 X_5 – turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmi.

1-jadval

Turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlari¹⁵

Yillar	Turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat, mlrd. so'm (Y ₁)	Mamlakat ichidagi turizm iste'moli, mlrd. so'm. (X ₁)	Turistik majmualarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm (X ₂)	Turistik majmualarda xizmat ko'rsatilgan mijozlar soni, ming kishi (X ₃)	Turizm tarmog'i va boshqa tarmoqlarda ishlab chiqarish hisobi, mlrd. so'm (X ₄)	Turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmi, mlrd. so'm (X ₅)
2011	3294,7	11897,2	13,8	209,6	208795,6	341,6
2012	3561,5	12348,9	21	293,1	223546,9	567,9
2013	3793,4	12785,6	15,9	359,7	246458,3	1112,3
2014	4066,4	13576,2	18,7	514,1	265476,1	1052
2015	4219,5	14010,7	18,5	560,4	297821,4	1187,5
2016	4253,3	13772,5	35,2	465,4	305867,2	1252,5
2017	4631,8	16568,3	31,7	666,9	312567,9	1546,9
2018	5085,7	20561,3	44,9	713,2	321587,4	1041,1
2019	6169	30314,8	87,5	942	344906,3	1313
2020	3245,7	12578,6	101,7	212,3	410294,3	255,8
2021	4869,8	156345,8	580,2	577,8	495497,6	422,1
2022	5286,4	24894,5	708,6	743,4	523456,7	1250,8
2023	5044,8	5044,8	5044,8	5044,8	5044,8	5044,8
2024	5076,5	5076,5	5076,5	5076,5	5076,5	5076,5

Endogen omil va unga ta'sir etuvchi ekzogen omil ko'rsatkichlarining mohiyati ko'riladigan bo'lsa, ta'sir etuvchi omillar sifatida kapital, resurs hamda turistik destinatsiyalarda band bo'lgan aholi soni orqali muhim ta'sirga ega bo'lgan omillarni ifodalovchi omil ko'rsatkichlari asosida ishlab chiqarish modeli ko'rinishidagi modelga yaqin bo'lgan bog'lanishga ega bo'ladi. Ajratib olingan asosiy endogen va ekzogen omillarning bog'lanishi asosida turistik destinatsiyalardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmining o'zgarish trendlarini aniqlash maqsadida yuqoridagi vaqtli qator ko'rinishidagi ma'lumotlarni EViews10 dasturidan foydalangan holda tahlil qilindi.

Aniqlangan ma'lumotlardan foydalangan holda turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar ta'sirida o'zgarishining ko'p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko'ra ushbu jarayonni ifodalovchi

$$\ln Y = -0,055 \cdot \ln X_1 + 0,13 \cdot \ln X_2 + 0,455 \cdot \ln X_3 - 0,452 \cdot \ln X_4 - 0,049 \cdot \ln X_5 + 11,64 \quad (1)$$

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

regressiya tenglamasi tuzildi.

Aniqlangan chiziqli logarifmik model potensialansa, turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmini ifodalovchi chiziqsiz ko'rinishdagi ekonometrik model kelib chiqadi:

$$Y_1 = \frac{X_2^{0,13} \cdot X_3^{0,455} \cdot e^{11,64}}{X_1^{0,055} \cdot X_4^{0,452} \cdot X_5^{0,049}} \quad (2)$$

Dasturiy paketdan foydalangan holda aniqlangan trend modellari asosida 2023-2027 yillarda turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi o'zgarishining istiqboldagi ko'rsatkichlari hamda ularni hisoblash uchun eng qulay modellar ro'yxati keltirildi (2-jadval).

2-jadval

Turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarining trend modellari hamda 2025-2027 yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari¹⁶


Ko'rsatkichlar va ularning omilli modellari	Prognoz ko'rsatkichlari		
	2025	2026	2027
Turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi, mlrd.so'm $Y_1 = \frac{X_2^{0,13} \cdot X_3^{0,455} \cdot e^{11,64}}{X_1^{0,055} \cdot X_4^{0,452} \cdot X_5^{0,049}}$	5134,0	5141,7	5483,3
Mamlakat ichidagi turizm iste'moli mlrd. so'm. $x_1 = 5397,322 * t - 6778,06$	74181,8	79579,1	84976,4
Turistik majmualarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm $x_2 = 47,888 * t - 171,462$	546,9	594,7	642,6
Turistik majmualarda xizmat ko'rsatilgan mijozlar soni, ming kishi $x_3 = 35,67 * t + 289,635$	824,7	860,4	896,0
Turizm tarmog'i va boshqa tarmoqlarda ishlab chiqarish hisobi, mlrd. so'm $x_4 = 26331,57 * t + 158534,4$	553508,0	579839,5	606171,1
Turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmi, mlrd.so'm $x_5 = 13,474 * t + 857,7076$	1059,8	1073,3	1086,8

Ko'p omilli ekonometrik modeldan foydalangan holda turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmining o'rta muddatda, ya'ni 2011-2027 yillarda o'zgarishi qiymatlarini grafikda ko'rinishi ifodalandi (1-rasm).

Yuqoridagi omilli bog'lanishlar asosida biz tomonimizdan turizm sohasining rivojlanishida eng muhim deb topilgan ko'rsatkichlarning natijaviy ko'rsatkichi hisoblangan turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmiga omillar ta'siri asosidagi rivojlanish ssenariysi ishlab chiqildi. Aniqlangan trendlardan foydalanish sohaga kiritilayotgan resurs hajmini

¹⁶ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

to'g'ri taqsimlagan holda resurs birligidan olinadigan samarani optimallashtirish imkonini beradi.



1-rasm. Turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi ko'rsatkichining 2011-2027 yillarda o'zgarishi¹⁷, mlrd so'm (2025-2027 yil prognoz ko'rsatkichlari)

Ko'p omilli bog'lanish asosida aniqlangan trend modellari kelgusi davrda soha faoliyati asosiy ko'rsatkichlarining tanlangan omillar ta'sirida ma'lum bir chegaradagi xatoliklarni hisobga olgan holda o'zgarishini oldindan prognozlash imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida turistik destinatsiyalardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmining o'zgarishi ham 4 ta asosiy omil ta'sirida kelgusi davr uchun prognoz qiymatlarni aniqlashda qo'l keladi.

Yuqoridagi tahliliy ma'lumotlar hamda ko'rsatkichlar qiymatlarini baholash asosida turizm sohasining rivojlanishida eng muhim deb topilgan turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va unga omillar ta'sirini hisobga olgan quyidagi trend modelini turizm sohasini kelgusi davrda rivojlantirish strategiyalari asosida ssenariylar ishlab chiqish jarayonida qo'llash mumkin.

EvIEWS 10 dasturi asosida ishlab chiqilgan model va prognoz ko'rsatkichlar turizm sohasini, jumladan sohada turistik majmualarni kelgusi qisqa va o'rta muddatlar oralig'ida rivojlantirish rejalarini va strategiyalarini ishlab chiqish yo'nalishida muqobil ssenariylarni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Sohada tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar ushbu ishlab chiqilgan modelda foydalanilgan natijaviy omil va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlaridan o'zlarining reja va dasturlarini shakllantirishda foydalanilsa, prognozlashning belgilangan mezonlari asosida tekshirish natijalariga asoslanib yuqori samara berishi aniqlandi. Ushbu ishlab chiqilgan model va u asosidagi hisob-kitoblar istiqbolda soha faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bir ssenariy sifatida soha

¹⁷ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

faoliyatini rivojlanishiga o'z samarasini beradi. Lekin tadqiqot amalga oshirilayotgan soha faoliyatida tahlil uslubiylotlaridan foydalanish asosida ajratib olingan natijaviy omil va unga ta'sir etuvchi omillardan tashqari kognitiv yondashuv asosidagi boshqa resurslarni ham korrelyatsion-regression tahlilini amalga oshirib tekshirib ko'rish imkoniyatiga egamiz va soha faoliyatini samarali rivojlantirishda ko'r variantli ssenariylardan foydalanish orqali natijador bo'lgan boshqaruv qarorlarini tanlash ham samarali hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida ishlab chiqilib amaliyotda foydalanish uchun taklif etilayotgan model va shu kabi ssenariylardan foydalanishda turizm xizmatlari bozorida faoliyat olib borayotgan turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmini oshirish nuqtai nazaridan kiritilayotgan resurslar (ekzogen omillar) hajmini har bir birlik qo'shimcha kiritilayotgan resurs birligidan olinadigan samarani hisobga olgan holda belgilash ko'rsatilayotgan turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat samaradorligini optimal ta'minlash imkonini beradi hamda turistik korxonalar faoliyatining muvozanatlashgan holda barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алимова М. Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида) : и.ф.д. дис. – Самарқанд : СамИСИ, 2017. – Б. 25–26.
2. Вачугов Д. Д. Основы менеджмента : учеб. пособие. – М. : Высшая школа, 2005. – 214 с.
3. Жўраев Х. Қ. угли, Хомидов Қ. Қ. Совершенствование институциональной базы системы государственного регулирования туристских комплексов // World of Scientific news in Science. – 2024. – Т. 2, № 2. – С. 262–269.
4. Khomidov K. Characteristics of improving organizational and economic mechanisms of management in higher education institutions. – Riga : Publishing House "Baltija Publishing", 2023.
5. Meskon M., Albert M. dr. Основы менеджмента. – М. : Дело, 1997. – С. 56.
6. Ramadonova M. M., Makarchenko M. A. Государственное регулирование туристической деятельности // Альманах научных работ молодых ученых университета ИТМО. – 2016. – С. 211–213.
7. Sharifxo'jayev M., Abdullayev Yo. Менежмент : дарслик. – Тошкент : Ўқитувчи, 2001. – Б. 75–77.
8. Surkov S. G., Krivoruchko V. I. Международный туризм в России : проблемы развития и управления. – М. : Советский спорт, 2009. – 214 с.
9. Ugli K. K. K., Ugli S. H. S., Ugli O. S. M. Foreign experiences in developing the tourism sector in the regions based on digital technologies: a comparative analysis // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2025. – № 10. – С. 1164–1177.

10. Xamidov Q. Теоретические аспекты управления деятельностью туристических комплексов в Узбекистане // Экономическое развитие и анализ. – 2024. – Т. 2, № 8. – С. 185–191.
11. Xomidov Q. O‘zbekistonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – Т. 2, № 8.
12. Хомидов Қ. Совершенствование механизмов управления конкурентоспособностью деятельности туристических комплексов Узбекистана // Передовая экономика и педагогические технологии. – 2025. – Т. 2, № 2. – С. 56–61.